



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

BUXORO QARLUQ SHEVALARIDA FONOMORFOLOGIK O‘ZGARISHLAR TALQINI

Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti
dilnavozasatullayeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro qarluq shevasida uchrovchi morfonologik hodisalar keltirib o‘tiladi. Asosan, reduplikatsiya hodisasiga katta e‘tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayonga xos bo‘lgan bir nechta misollarni aynan Buxoro viloyati qarluq guruhi shevalarida ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: morfonologiya, asos, so‘z, reduplikatsiya, lahja, sheva.

Annotation:

This article presents the morphonological phenomena observed in the Karluk dialect of Bukhara. Special attention is given to the phenomenon of reduplication, with several examples illustrating this process specifically within the Karluk group dialects of Bukhara region.

Keywords: morphonology, root, word, reduplication, dialect, vernacular.

Dunyo tilshunosligida dialektologik tadqiqotlar hamon tez sur‘atlar bilan olib borilmoqda. Endilikda bunday tadqiqotlar muayyan areallar bo‘yicha amalga oshirilishi boshlanib ketdi. Bu fikr ko‘proq o‘zbek areal lingvistikasiga tegishli bo‘lib turibdiki, dunyo tilshunosligida bu sohada anchagina tadqiqotlar mavjud.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlgan morfonologiya morfologiya va fonologiya chegarasida joylashgan boʻlib, soʻz shakllanishi va grammatik oʻzgarishlar jarayonida tovushlarning oʻzgarish qonuniyatlarini oʻrganadi. Morfonologiya ayniqsa qoʻshimchalar qoʻshilishi, soʻz yasalishi va fleksiya jarayonlarida yuzaga keladigan tovush almashinuvlarini tahlil qilish bilan shugʻullanadi. Torroq tushunchaga koʻra, morfonologiya obyekti sifatida bir morfema morflari tarkibida fonemalarning oʻzgarishi, yaʼni ularning almashinishi deb qaraladi. Boshqa nuqtai nazarga koʻra, Kubryakova oʻzining “Morfonologiya” deb nomlangan monografiyada keltirishicha, morfonologiya obyektidan ichki fleksion hodisalari chiqarib tashlanadi, morfonologiyaning oʻrganish obyektiga faqat koʻmakchi kiradi [Кубрякова Е.С. Большая российская энциклопедия. Морфонология.- Москва: Прогресс, 1960 - С. 145].

Morfonologiya sohasi, shubhasiz, birinchidan, turli sinflarga mansub morfemalarning tuzilishini oʻrganishni, ikkinchidan esa, tilda mavjud boʻlgan morfologik almashinish tizimini tavsiflashni oʻz ichiga qamrab oladi. Biroq bu sohalarning birinchisida haqiqatdan ham muhim ilmiy natijalarga erishish mumkinmi, bu hali aniq emas.

Oʻzbek tilidagi nutq jarayonlarida tovushlarni ketma-ket keltirish yoʻli bilan turli xil maʼno birliklarini hosil qilishimiz mumkin. Aynan talaffuz qulayligiga erishish maqsadida nutqimizda fonetik oʻzgarishlarga duch kelamiz. Bunda talaffuzdagi noqulaylikni yoʻqotish uchun biz oʻz talaffuzimizga soʻzlarni moslashtirib olamiz va bu jarayonda nutqimizda turli fonetik oʻzgarishlardan foydalanamiz.

Reduplikatsiya — bir soʻzning yoki uning bir qismi takrorlanishi orqali yangi maʼno hosil qilish hodisasidir. Bu jarayon ham morfonologik hodisalar tarkibiga kiradi.

- Masalan, “katta-katta”, “yaxshi-yaxshi” kabi soʻzlar sifat darajasini kuchaytirish uchun ishlatiladi.

- “bola-chaqa”, “uy-joy” kabi soʻzlar esa umumlashma maʼno hosil qiladi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Yuqoridagi misollar adabiy tilde yuz beradigan reduplikatsion o'zgarishlar edi. Ushbu hodisalarni biz shevalarda ham uchratamiz. Buxoro qarluq shevasi ham bundan mustasno emas, albatta. Aslida reduplikatsion o'zgarishlarda juft so'zlardagi uzvlarga qarab ushbu hodisa qaysi uzvda sodir bo'lganini payqaymiz. Misol tariqasida kättä-mättä so'zini oladigan bo'lsak, ushbu so'zda 2-uzvdagi o'zgarishni ko'rishimiz mumkin. Reduplikatsiya fonetik jihatdan ham, grammatik va leksik ma'noda ham turli funksiyalarga ega bo'lib, u so'z yasashida ham, gapdagi ta'sirchanlikni oshirishda ham qo'llaniladi. Yoki Buxoro qarluq shevasida uchrovchi buppä-butun so'ziga to'xtalsak, ushbu so'zda ham 1-uzvda uchrovchi reduplikatsiya jarayoniga misol bo'la oladi.

Bibim bijiñčämni buppä-butun älip kelilä.

Bundan tashqari biz istehzoli reduplikatsiyani ham kuzatishimiz mumkin:

Bäj-mäy –unchalik boy bo'lmagan odam ma'nosida qo'llaniladi.

Öqigän-möqigän- ilimli deb o'ylangan insonga nisbatan qo'llaniladi. (aslida bunday bo'lmagan holatda)

Yana biz shubha va befarqlik ifodalovchi reduplikatsion jarayonlarni ham kuzatishimiz mumkin. Bunday shakllar noaniqlik, shubha yoki beparvolik ma'nosini bildiradi:

Gäp-päp, gäp-säp so'zlarini olsak, har ikkala so'zda ham 2-uzvda uchrovchi reduplikatsiyani uchratamiz va bu so'zlar qandaydir noaniqlik, shubha va beparvolikni payqaymiz, ya'ni gap-so'z va mish-mish ma'nosida bu so'zlar Buxoro shevasida unumli ishlatiladi.

Taqdim etib, sanab o'tish ma'nolarini beradigan reduplikatsion o'zgarishlar ham uchrab turadi:

Nän-pän, čäj-päj, kölä-pölä (sho'rdanak) keräjmäsmi?

Yuqoridagi misolda ko'rib turganimizdek, bu so'zlar o'z-o'zidan sanab o'tish ma'nosini bildirmoqda.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Morfonologiya ko‘rib turganimizdek, aksari fonetik o‘zgarishlarni: 1. Tovush tushishi 2. Tovush almashinishi 3. Tovush ortishi kabi turlarini o‘z ichiga oluvchi bo‘lim hisoblanadi. Hozirgacha ushbu bo‘lim to‘liq o‘rganilmaganligi, olimlar tomonidan yetarlicha talqin qilinmaganligi sababli ham ushbu sohaga oid ko‘pgina savollar javobsiz qolib kelmoqda. Rus va ingliz olimlarining turli xildagi ilmiy ishlari tarkibidan biz ushbu mavzuni yanayam ochib o‘rganib kelmoqdamiz. Bora-bora ushbu mavzuga oid ishlar ko‘payib, ushbu soha keng ko‘lamda o‘rganilib, barcha mavhum savollarga javob topiladi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шоабдурахмонов III. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 207.
2. Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Morfonologiya>
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/morfonologiya/>